

XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH SOHASI TERMINLARIDA KO'P MA'NOLILIK, SINONIMIYA VA OMONIMIYA HODISASI

Dilrabo BAXRONOVA

Professor, filologiya fanlari doktori (DSc)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Hafiza RADJABOVA

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

ФЕНОМЕН МНОГОЗНАЧНОСТИ, СИНОНИМИИ И ОМОНИМИИ В ТЕРМИНАХ СФЕРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОГО ТУРИЗМА

Дилрабо БАХРОНОВА

Профессор, доктор филологических наук
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

Хафиза РАДЖАБОВА

Академия МВД Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

THE PHENOMENON OF AMBIGUITY, SYNONYMY AND HOMONYMY IN THE TERMS OF THE SPHERE OF ENSURING SAFE TOURISM

Dilrabo BAKHRONOVA

Professor, Doctor of Philology
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

Hafiza RADJABOVA

Academy of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan radjabovahafiza@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 81'373

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Baxronova D., Radjabova H. Xavfsiz turizmni ta'minlash sohasi terminlarida ko'p ma'nolilik, sinonimiya va omonimiya hodisasi.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5 (52). — B. 7-22.

<https://doi.org/10.36078/1696486163>

Received: August 21, 2023

Accepted: October 03, 2023

Published: October 05, 2023

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda ilm-fanning jadal rivojlanishi va integratsiyalashuvi natijasida ko'plab yangi terminlar o'zbek tiliga kirib kelmoqda. Ushbu maqolada xavfsiz turizmni ta'minlash sohasiga oid terminologiya masalalari hamda til leksik qatlamini boyituvchi polisemiya, omonimiya va sinonimiya hodisalariga e'tibor qaratildi. Termin haqidagi ilmiy-nazariy ma'lumotlar, u bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari va uning sohada qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqildi, umumiy tilda bir-birining o'rnini bosuvchi ko'pgina so'z va so'z birikmalarining sinonimik tarjimalariga izoh berildi. Soha terminologiyasidagi polisemiya, omonimiya, sinonimiya, ma'no torayishi va kengayishi hodisalari muhokama qilindi hamda tildan foydalanuvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan chalkashliklarni oldini olish maqsadida misollar orqali yoritib berildi. Terminologiya bo'yicha jahon tilshunosligida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, maqola orqali qilingan xulosalar o'zbek terminologiyasini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Copyright © 2023 by author(s).
This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Kalit soʻzlar: xavfsiz turizm; polisemiya; sinonimiya; omonimiya; omofon; omograf; termin; terminologiya.

Аннотация. В настоящее время в результате бурного развития и интеграции науки в узбекский язык входит много новых терминов. Терминология включает в себя большую часть лексики каждого языка, и, изучая различные дискуссии и мнения в этом направлении, можно увидеть, что роль терминов в языкознании очень велика. В данной статье рассматриваются вопросы терминологии в сфере обеспечения безопасного туризма, а также явления полисемии, омонимии и синонимии, обогащающие лексический пласт языка. Рассмотрены сведения о термине, проведенные над ним исследовательские работы и специфические аспекты его использования в данной области, обсуждаются многие слова и словосочетания, заменяющие друг друга в общеупотребительном языке, объясняются переводы синонимов. Явления полисемии, омонимии, синонимии, сужения и расширения значений в терминологии данной области обсуждаются и объясняются на примерах во избежание путаницы, с которой могут столкнуться пользователи языка. Хотя в мировой лингвистике проведен ряд исследований по терминологии, выводы, сделанные в статье, служат обогащению узбекской терминологии новыми сведениями.

Ключевые слова: безопасный туризм; полисемия; синонимия; омонимия; омофон; омограф; термин; терминология.

Abstract. Currently, as a result of the rapid development and integration of science, many new terms are entering the Uzbek language. Terminology is a very large part of the vocabulary of any language, and by studying the various discussions and opinions about it, it can be seen that the role of terms in linguistics is very large. This article focuses on issues of terminology in the field of ensuring safe tourism, as well as phenomena of polysemy, homonymy and synonymy that enrich the lexical layer of the language. Information about the term, research work conducted on it and specific aspects of its use in the field are considered, many words and phrases that are used interchangeably in the common language are discussed, translations of synonyms are explained. The phenomena of polysemy, homonymy, synonymy, meaning narrowing and widening in the terminology of the field will be discussed and explained through examples to avoid the confusion that the users of the language may face. Although several research works on terminology have been carried out in world linguistics, the conclusions made through the article serve to enrich Uzbek terminology with new scientific and theoretical views.

Keywords: safe tourism; polysemy; synonymy; homonymy; homophone; homograph; term; terminology.

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotning barcha sohalariga jadal kirib borayotgan XXI asrda terminologiya masalalari yanada dolzarblik kasb etdi. Terminologiya boʻyicha bir qator amaliy va nazariy tadqiqotlarni E. Vyuster, X. Felber, A. Ellis, J. Rayt, K. Brunner, E. Partridj, S. Chapligin, T. Kandelaki, G. Vinokur, A. Superanskaya, N. Podolskaya, I. Arnold, B. Ilish, M. Makovskiy, N. Dmitriyev, N. Baskakov, A. Reformatskiy, V. Danilenko, O. Azizov, I. Rasulov, X. Doniyorov, Sh. Rahmatullayev, H. Jamolxonov, A. Hojiyev, A. Madvaliyev,

R. Doniyorov, N. Mamatov, S. Ibrohimov, M. Abdiyev kabi olimlar olib borganlar (1, 9).

Ma'lumki, terminologiya sohasida o'zlashma so'zlar va omonimiya, sinonimiya, ko'p ma'nolilik hodisalari ma'qullanmasada, ular qo'llanilish jihatidan o'z o'rniga ega. O'zlashgan so'zlarning ba'zilari jahon tillari lug'at boyligidan salmoqli o'rin egallab, deyarli o'z leksik qatlamga aylanib ketgan (2, 75).

Termin so'zi turli tadqiqot ishlarida keng yoritilib, uning lotincha so'zdan kelib chiqishi va "chegara" ma'nosini anglatishi hamda muayyan sohagagina oid bo'lgan tushunchalarni ifodalashi uchun foydalaniladigan so'zlar yoki so'z birikmalari ekanligi ta'kidlanadi. A. Pardayev fikriga ko'ra, terminlarning umumiy foydalaniladigan so'zlardan farqi shundaki, unda ma'noning yakkaligi mavjud, terminning faqatgina bir sohada ishlatilishi hamda ta'sirchanlik kabi xususiyatlardan xoli bo'lishi kerak (1,12). Masalan, turizmga oid terminlar: *gid, ekoturizm, sayyoh, turoperator, meros obyektleri*; yuridik terminlar: *xavfsizlik, advokat, aybdor, huquqbuzarlik*; tibbiyotga oid terminlar: *tana harorati, glyukometr, qandli diabet, vaksina, tonometr* va boshqalar.

Har bir soha terminlarining xoh xorijiy tildan o'zlashgan o'zlashmalari bo'lsin, xoh derivatsion yo'l orqali shakllantirilsin, ular vaqt o'tib ma'lum sohalarda ishlatiladigan til lug'atlarida o'z aksini topadi. D. Baxronovanning e'tiroficha, izohli lug'atlarda leksik birliklarning qaysi dialektdan o'rin egallashi, asl lug'aviy ma'nosi, dialektimizga moslashganidan keyingi ko'p ma'nolilik yoki bir ma'nolilik sifatleri alohida keltirib o'tiladi (2, 65).

Terminologiyada leksik birliklar va terminlar olib boriladigan tadqiqot ishlarining asosiy obyektlari hisoblanadi. Ularning tadqiqi bir qator xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ular:

1. Terminlarning etimologiyasi, ya'ni kelib chiqish hodisasi.
2. Ifodalaydigan ma'nolari.
3. Struktur tuzilishi.
4. Vazifasiga ko'ra xususiyatlari.

Terminlarning asosiy vazifalari muayyan tushunchani ifodalash hamda uni terminologiyada shakllanishiga xizmat qilishdan iborat. Ma'lumki, "termin" so'zining ta'rifida u nafaqat ma'lum bir tushunchani ifodalaydigan so'z sifatida, balki ma'lum bir sohada foydalaniladigan terminologiya ma'nosida ham ta'riflanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, leksikografiya va terminologiya terminlar bilan shug'ullanadi, biroq leksikografiyada faqatgina so'zlarning ma'nolari o'rganilsa, terminologiyada u terminlarning etimologiyasi, rivojlanishi va ma'lum bir sohaga oidligi tadqiq qilinadi.

Kabre ta'kidicha, terminologiya quyidagi jihatlar bilan farqlanadi:

- ma'lum faoliyat turida foydalaniladigan tushunchalarni tahlil qilish;
- ma'nosiga ko'ra tushunchalarni belgilash;
- terminologiyani qog'ozda yoki ma'lumotlar bazalarida tuzish;

- terminologik ma'lumotlar bazalarini boshqarish;
- yangi terminlar yaratish (3, 49).

Bizningcha, yuqoridagi xususiyatlar, terminologiyaning asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, terminlarning ko'p ma'nolilik hodisasidan ko'ra alohida sohalarning maxsus so'zlari va shu sohagagina oidligi, kelib chiqishi hamda rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Asosiy qism. Tahlil va metodologiya. Terminologiya sohasiga o'z hissasini qo'shgan bir qator olimlarning terminologiya va unda uchraydigan sinonimiya, omonimiya va polisemiya hodisalari haqidagi fikrlari quyidagicha:

Y. V. Slojenikinaga ko'ra, terminologiya nafaqat so'zlarni tegishli soha lug'atlarida shakllantirish bilan shug'ullanadi, balki ifodalovchi ma'nolariga ko'ra semiologik tizimini ham yaratishga xizmat qiladi. Shunday ekan, terminologiyaning rivojlanishi ilmiy tafakkur va ilmiy qarashlar negizida ravnaq topadi (4, 195).

P. A. Florenskiy esa o'zining "Termin" nomli asarida keltirishicha, ilmiy nutqning shakllanishida so'zlashuv nutqining o'zni katta va uning yordamida ma'lum bir predmet haqidagi tushunchaga ega bo'linadi. Bu o'z-o'zidan terminologiyani tartibga solishni taqozo qiladi va terminga qo'yilgan talab ushbu predmetning ma'nosi bilan bog'liq muammoni hal qilishi lozim, ya'ni aniq tushunchani berishi va o'sha predmet ma'nosiga chegara qo'ya olishi zarur. Har bir terminning paydo bo'lish tarixini o'rganish orqali terminologiya tarixi ham o'rganiladi (5, 359).

V. M. Leychik terminologiya taraqqiyotidagi bir qator bosqichlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Birinchisi, tayyorgarlik — antik davrdan zamonaviy davrgacha hisoblansa, ikkinchi davr — 30–60-yillarni o'z ichiga oladi va bu davr bir qator terminologlar nomi bilan bog'liq: V. V. Vinogradov, G. O. Vinokur, E. K. Drezen, T. L. Kandelaki, L. A. Kapanadze, D. S. Lotte, A. A. Reformatskiy, A. M. Terpigorev, P. A. Florenskiy shular jumlasidan. XX asrning dastlabki o'n yilliklarida terminologiya lingvistik tadqiqotning dolzarb obyektiga aylandi. Uchinchi — 70–90-yillar bo'lib, terminologiyani leksikologiyaning mustaqil bo'limiga ajratish, maxsus adabiyotlar, obyekt, tadqiqot metodlarining paydo bo'lishi, termin nazariyasining rivojlanishi bilan xarakterlanadi (N. V. Vasilyeva, V. G. Gak, N. B. Gvishiani, A. S. Gerd, B. N. Golovin, V. P. Danilenko, R. Y. Kobrin, T. S. Kogotkova, Z. I. Komarova, S. I. Korshunov, N. Z. Kotelova, K. A. Levkovskaya, V. M. Leychik, G. P. Melnikov, S. E. Nikitina, V. P. Petushkov, R. G. Piotrovskiy, N. V. Podolskaya, V. N. Proxorova, G. G. Samburova, A. B. Superanskaya, V. A. Tatarinov, Y. N. Tolikina, N. I. Tolstoy, O. N. Trubachev, S. D. Shelov, N. A. Shurgin va boshqalar (6, 41–55).

Kastelviga ko'ra, hozirgi kunda terminologiya haqida gap ketganda, uni umumiy leksikologiyaning maxsus bo'limi sifatida gapirish lozim. Terminologiyaning umumiy nazariyasini quyidagi bosqichlardan o'tishi lozimligini ta'kidlaydi:

1. Terminlarning shakllanishida to'plangan bilimlarni foydalanish sohasi bo'yicha tadqiq qilish.

2. Mavjud soha terminlarini kengaytirish.

3. Turli sohalarga oid terminlarning umumiy bo'lgan xususiyatlarini topish.

4. Yangi terminlar yaratishning maqbul usullarini qidirish (7, 6).

Ayrim tilshunoslar terminning ma'lum bir leksik ma'noga egaligi, sinonimiya, polisemiya, antonimiya kabi hodisalarga uchramasligi, sohasi bo'yicha ajralib turishi, ma'noviy jihatdan chegaralanganligi, foydalanish doirasiga ko'ra aniq qoidalarga egaligi kabi muhim xususiyatlari bilan umumis'temoldagi so'zlardan ajralib turishini ta'kidlaydi (8, 78).

Terminologik tadqiqotlarda keltirilishicha, terminlar haddan tashqari uzun yoki qisqa bo'lmasligi kerak. Terminologiyadagi so'zlarning ma'noviy jihatdan tadqiqida sinonimiya, omonimiya, antonimiya, polisemiya masalasi eng munozarali masalalardan hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotchilar sinonimiya, antonimiya, polisemiya va omonimiyaning yo'qligi haqida yozadilar, ular terminlar kontekstdan mustaqil deb hisoblashadi. Bu borada tadqiqotchi Sossyur *terminologiyaning polisemiyalilik, sinonimiyalilik kabi xususiyatlari bo'lmasligi kerak degan terminologlarning fikrlarini to'liq qo'llab-quvvatlamaydi*, chunki terminlar lingvistik birlik hisoblanib, har xil holatlarda moslashuvchanlik xususiyatlariga egaligini, undan foydalanishda konseptual tizimning inobatga olinishi va terminga kiritilgan yangi ma'noni ham inobatga olib tahlil qilinishini izohlaydi (9, 204).

Terminlar kasb-hunar so'zlaridan farq qilishini ta'kidlagan A. V. Kalinning fikricha, terminlar — ma'lum bir soha (sanoat, fan, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, texnika)ga tegishli qat'iy ma'noga ega, soha mutaxassislari tomonidan qonunlashtirilgan va qabul qilingan hamda rasmiy tilda foydalaniladigan, soha lug'atlaridan joy olgan ma'lum predmetning nomini atovchi so'z yoki so'z birikmalaridir. Kasb-hunar so'zlari yarim rasmiy so'z bo'lib, og'zaki va ilmiy nutqda birday foydalaniladi, mutaxassislik jihatidan biror tushunchaning qat'iy ma'nosiga ega bo'lmagan shakli deb ta'kidlanadi (10, 141).

Tadqiqotchi Mahmudov fikricha, terminologiyaning shakllanishida jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlarga asosiy mezon sifatida qaraladi. Millatlararo aloqalarning rivojlanishi orqali tillararo lug'atlarda yangi o'zlashmalarni ba'zan ixtiyoriy, ba'zan majburiy tarzda kirib kelishi izohlanadi (11, 144).

Terminologiyada ko'p ma'nolilik, omonimiya va sinonimiya hodisasining sodir bo'lishi ma'qullanmasa-da, ushbu hodisalar orqali tilning boyishini kuzatishimiz mumkin.

Ko'p ma'nolilik (polisemiya) — bir so'zning faqat bir ma'noni emas, balki uning boshqa so'zga aloqadorligi orqali bog'lanishi va shu orqali bir nechta ma'noni anglatishi kabi lingvistik hodisaga uchrashi hisoblanib, terminologiyada polisemiya terminning ma'lum bir sohada turli tushunchalar yoki g'oyalarni ifodalashi uchun

ishlatilganda paydo bo'lishi ta'kidlanadi. Ko'p ma'nolilik hodisasi, kontekstdan ko'zda tutilgan ma'noni aniqlash zaruriyatini taqozo etadi. Slojenikinaga ko'ra, terminlarning ko'p ma'nolilik hodisasi sabab kontekstda nazarda tutilgan ma'nosini aniqlash muhim, bunda soha tizimiga oid terminlarning xususiyatiga e'tibor qaratiladi, masalan, huquqiy terminlar ma'nosining katta qismini huquqiy tizimdan olinishi uning boshqa soha terminologiyasidan ajralib turadigan jihati sifatida ta'kidlanadi (12, 231).

Kabrega ko'ra, "ko'p ma'nolilik so'z semantik stukturasi kengayishining eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ko'p ma'noli terminlarning shakllanishi biror-bir leksik birlikning boshqa leksik birlikka o'xshashlik jihatidan belgilanishi orqali kelib chiqadi va qisman semantik bog'lanishdan yangi termin yaratiladi". U o'zining terminologiyaga bag'ishlangan kitobida quyidagi misol orqali polisemiyaning ta'riflaydi:

Reaksiya:

• *Kimyo*: moddaning parchalanishi, boshqa moddalar bilan qo'shilishi yoki tarkibiy qismlarini boshqa moddalar bilan almashtiradigan o'zgarish.

• *Fizika*: jism tomonidan unga ta'sir qiluvchi kuchga nisbatan teng va qarama-qarshi kuch.

• *Tibbiyot*: hujayralar yoki to'qimalarning antigenga javobi (3, 108).

D. S. Lottening fikriga ko'ra, terminologiyaning asosiy kamchiliklaridan biri uning kontekstdan kelib chiqib o'zgarib turishi, ya'ni ko'p ma'nolilik hodisasi. Terminning alohida tushunchani ifodalashi va u tushuncha faqat bir terminga mos kelishi lozimligini ta'kidlab o'tadi. D. S. Lotte quyidagi kategoriyadagi so'zlarni terminlashishi mumkin deb hisoblaydi: "...texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblilar, detallar va h.k.); xossalilar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik obrazlar va h.k.); o'lchov birliklari" (13, 29).

A. A. Reformatskiyning fikricha, termin ko'p ma'nolikdan — polisemiya ajralib turishi kerak. Termin bir va aniq ma'noni bildiradigan maxsus so'zdir (14, 85).

Malmkayerga ko'ra, ko'p ma'noli terminlarning ma'no jihatdan ko'lami keng bo'lishiga qaramay, ularni bog'lab turuvchi o'xshashliklar borligini ta'kidlaydi (15, 108).

S. Usmonovga ko'ra, terminlarning kontekstda ham, mustaqil so'z sifatida ham bir ma'noni anglatishi va uni cheklangan sohadagina ishlatilishi orqali boshqa so'zlardan alohida ekanligi asosiy jihati sifatida izohlanadi (16, 7). Bizningcha, terminlarning bir ma'noga ega ekanligi muhim va bu ma'qullansa-da, o'rganilgan tadqiqot ishlarida ko'p ma'nolilik terminlarda ham uchrab turishi kuzatildi.

Y. T. Shirinovaning fikricha, terminlarning ko'p ma'nolilik hodisasi uchirashi tabiiy, uni cheklashning imkoni yo'qligi va har qanday holda ham terminologiyada bunday terminlar uchun joy topilishi mumkin (17, 95).

P. Faberga ko‘ra, ko‘p ma‘nolilik va sinonimiya hodisasini mutaxassislik matnlarida ham uchratish mumkin, bunda bir termin o‘rniga boshqasidan foydalanishi so‘zlovchilarning bilim darajasi, kasbiy mahorati, ijtimoiy mavqeyini ifodalashda xizmat qiladi (18, 19).

Y. J. Davidov fikricha, tilshunoslikda ko‘p ma‘noli so‘zlarni vujudga keltiruvchi birdan-bir hodisa ko‘chma ma‘noning hosil bo‘lish hodisasi deb ko‘rsatiladi. Haqiqatda ham ko‘chma ma‘no hosil bo‘lishi ko‘p ma‘nolilikning yuzaga kelishi uchun asosiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ba‘zi tilshunoslar ma‘no kengayishi hodisasini ham ko‘p ma‘nolilikning yuzaga kelishi uchun sabab bo‘luvchi hodisalardan biri deb qaraydilar (19, 246).

Quyida bir qancha polisemiya hodisasiga uchragan terminlarni ko‘rib chiqish mumkin. **Vaxta:**

- 1) navbatchilik, posbonlik;
- 2) kemada posbonlik qilayotgan qism;
- 3) muhim obyektlardagi navbatchilik ma‘nolarida (20, 92).

Akt:

- 1) akt;
- 2) harakat, ish;
- 3) dalolatnoma ma‘nolarida.

Disposition:

- 1) tartib, joylashuv (*harbiy*);
- 2) moyillik, munosabat;
- 3) inson tabiati;
- 4) mulkni topshirish (*huquqiy*).

Nature:

- 1) berkitishni iloji bo‘lmagan, ochiq-oydin ko‘rinib turgan jinoyat;
- 2) xarakter, fe‘l-atvor;
- 3) mohiyat;
- 4) tur, xil
- 5) tabiat, atrof-muhit.

War:

- 1) urush, jang (*harbiy*);
- 2) bellashuv, raqobatlashuv (*sport*);
- 3) chek qo‘yish;
- 4) mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat (*iqtisod*).

Cabin:

- 1) yozgi uy (dala hovli) singari kichik, sodda boshpana;
- 2) sohil yoki hovuz bo‘yidagi sodda xona yoki unga o‘xshash tuzilma;
- 3) yopiq lift;
- 4) kemadagi tunash xonasi;
- 5) samolyotning yo‘lovchilarga mo‘ljallangan ichki hududi.

Arrest:

- 1) hibsga olish;
- 2) to‘xtatmoq;
- 3) e‘tiborini tortmoq;

4) yuragi urishdan to'xtamoq.

Execution:

- 1) bajarmoq, amalga oshirmoq;
- 2) mahorat, ijro;
- 3) rasmiylashtirish;
- 4) qonuniylashtirish.

Box:

- 1) alohida ajratilgan joy;
- 2) butasimon o'simlik;
- 3) quti;
- 4) musht bilan urmoq.

Militia:

- 1) faoliyat turi;
- 2) ichki ishlar organi xodimi.

Organ:

- 1) musiqa asbobi;
- 2) tana a'zosi;
- 3) hukumat organi.

Ko'p ma'noli so'zlar o'zbek tilida tilning quyidagi hodisasi natijasida vujudga kelishi bir qator tadqiqot ishlarida ko'rsatib o'tilgan.

1. So'zdagi ma'noning ko'chish hodisasi natijasida.
2. Evfemizm (so'zga ijobiy yondashish) va disfemizm (so'zga salbiy yondashish) natijasida.
3. Affiksatsiya (o'zakka qo'shimchalar qo'shish) natijasida.

Ko'p ma'nolilik turlari.

Terminologiyadagi polisemiya hodisasi so'zlarning metaforik va metonimik ma'no ko'chishi natijasida amalga oshiriladi. **Metonimiya** hodisasi qator olimlar tomonidan tadqiq qilinib, unga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, E. Qilichev metonimiyani quyidagicha ta'riflaydi: "*metonimiya polisemiyaning bir ko'rinishidir. Predmet yoki hodisalarni anglatuvchi so'zlar metonimiya yo'li bilan yangi ko'chma ma'no anglatar ekan, bunda bir-biridan tubdan farq qiluvchi va butunlay boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalovchi predmet-narsa va hodisalarning makon yoki zamonda o'zaro ichki va tashqi jihatdan yaqinligi, bog'liqligi, aloqadorligi ko'zda tutiladi. Ya'ni predmet yoki hodisalarni makon yoki zamondagi o'zaro doimiy bog'lanishlari asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi*" (21, 71).

Ma'nosi metonimiya asosida ko'chgan terminlar u qadar ko'p bo'lmasa ham, har holda uchrab turadi. Masalan, *modera, madeyra, tokay* (vino turlarining nomi) aslida joy nomlaridan olingan (1, 128).

Metafora tashqi o'xshashlik orqali tushunchalarning boshqa bir so'zga ko'chishi hodisasi. Metafora yunoncha "ko'chirish" ma'nosini anglatib, biror-bir predmetning o'xshashlik asosida boshqa predmet nomiga ko'chishi hisoblanadi (22, 190). Metaforada turli xil yo'llar bilan ma'no ko'chishi kuzatiladi:

1. Inson a'zolarining nomi boshqa narsalarga ko'chishi orqali.

2. Fe'l va sifatlarning ham o'xshashligiga ko'ra ma'no ko'chishi.

3. Kishilarning ismlarini (Arslon, Hilol) metafora asosida qo'yilishi.

4. Hayvon, parranda, hasharot yoki ularning a'zolari.

5. Qurol yoki boshqa predmet nomlari.

6. Tabiat hodisalari.

7. Qimmatbaho jism nomlari va boshqalar.

“Tourism as a *pillar* for socio-economic development”. Bu gapda “Turizm — ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning *ustuni*”, ya'ni daraxtning ustuni emas, balki “Turizmni davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asosiy sabablaridan” ma'nosida o'xshashlik sabab ma'no ko'chishi ro'y bergan.

“The *heartbeat* of tourism in Uzbekistan” gapidagi “*heartbeat*” so'zi ham yurak urishi emas, balki “*muhim jihati*”, “*asosiy omili*” ma'nolarida ishlatilgan.

“Travel industry is *hungry* for new travelers”. “Sayohat sanoati uchun yangi sayohatchilarga doimo *ehtiyoj bor*”, ya'ni “sanoat rivoji uchun sayyohlar zarur” ma'nolarida ma'no ko'chish hodisasi yuz bergan.

“The White House issued a statement”. “Oq uy bayonot berdi” iborasida “Oq uy” bino emas, balki muassasa yoki ma'muriyatni ifodalash uchun metonimik sifatida ishlatilgan.

Metafora va metonimiya ko'p ma'nolilikning ortishiga xizmat qiladi va bu lingvistik jarayonlar terminologiyada biroz ma'no kengayishiga sabab bo'ladi. Ushbu turdagi polisemiyaning tushunish va aniqlash til tahlili va talqinida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Terminologlar leksikografiyadagi polisemiya va terminologiyadagi omonimiya tushunchalarini izohlashda ularning ikkisi ham ma'no jihatidan tahlil qilinishi, biroq foydalanish jihatidan farqlanishini ta'kidlaydilar.

Sinonimiya — semantik hodisa bo'lib, leksikadagi eng muhim tizim yasovchi kategoriyalardan biri hisoblanadi. Sinonimlar tilshunoslikda bir xil tushunchaning nomini ifodalovchi turli so'zlardir. Terminologiyada sinonimiyaning paydo bo'lishi ma'lum sohada bir qancha terminlarning aynan bitta tushunchaning ifodalashi uchun qo'llanilishidir. Sinonimlarni qo'llashda, ayniqsa, sohalarga oid terminlardan foydalanishda garchi xilma-xillik ta'minlasada, to'g'ri ishlatilmasa, chalkashlik va nomuvofiqlikka olib kelishi mumkin. Bunday hollarda terminologiyadan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar va standartlarni o'rnatish izchil va aniq aloqani ta'minlashga yordam beradi.

Sinonimlar barcha soha terminologiyasida muntazam ravishda qo'llaniladi, ularga neologizmlar, turli tillardan o'zlashgan o'zlashmalar va eskirgan terminlar kirib, sinonimlarning ko'payishiga xizmat qiladi. Ayrim terminlar sinonimlari juda ko'p. Masalan, jahonda qo'llanayotgan *candida albicans* tibbiyot terminining 100 dan ortiq sinonimi mavjud (1, 114).

Sinonimiya hodisasi yunon tilshunosligining falsafiy davriga borib taqalishini, xususan, Demokrit va uning tarafdorlari qarashlarini o'rgangan tadqiqotchi R. Rasulovga ko'ra, muayyan predmetning turlicha ifodalanishi, ya'ni turlicha nomlar bilan atalishi hamda bir so'zning bir necha ma'nolarni anglatishi sinonimiya va omonimiyaning asosiy jihatlari hisoblanadi (23, 19).

XX asrga kelib o'zbek tilshunosligida ham sinonimiya hodisasi keng o'rganilib, tadqiqotchilar H. Rahmatullayev, A. Hojiyev, E. Begmatov, H. Ne'matov, H. Shamsuddinov, H. Jamolxonov, I. A. Siddikovalar tomonidan sinonimiya, polisemiya va omonimiya hodisalari izchil tadqiq qilindi. H. Dadaboyev "O'zbek terminologiyasi" qo'llanmasida termin-sinonimlarning terminologiyaning rivojida hissasi ko'pligini ta'kidlab, quyidagi sinonimlarni misol keltiradi: "bilga-bilguchi olim", satg'uchi-sart "savdogar, tojir", elchi-rasul "elchi", elchi-rasul-payg'ambar "payg'ambar", qarg'a-quzg'un "qarg'a", chayon-aqrab "Chayon burji", yulduz ilm-i nujum "ilm-i nujum" "astronomiya, astrologiya", to'p-zambarak, to'pchi-artilleriyachi, attashe-vakil, shinak-tuyuk, qo'poruvchi-diversiyachi, tilshunoslik-lingvistika, graduonimiya-darajalanish, mablag'-budjet, hisobchi-buxgalter, sotqin-xoin va boshqalar" (20, 95–96).

Terminologiyada ma'lum bir tushunchalarni ifodalashda ikkidan ortiq sinonimlardan foydalanish hodisasi uchrab turadi, masalan, birgina "termin" so'zining ayni vaqtda uch xil ko'rinishda "atama" va "istiloh" ko'rinishlari mavjud (20, 92).

Danilenkoga ko'ra, sinonimiyaning rivojlanishi terminologik tadqiqotlarning boshlang'ich davrlariga to'g'ri kelib, unda bir predmetni ifodalashda bir qancha so'zlardan foydalanilganligi, ushbu so'zlarni tanlashda turli fikrlarning mavjudligi va terminlarni saralovchi manbalarning xilma-xilligi asosiy jihat sifatida ta'kidlanadi (24, 73).

Reformatskiyning fikricha, terminologiyadagi sinonimlar dubletlar deb ham nomlanadi, bunga sabab sifatida muayyan so'zning boshqa vazifalarni bajaruvchi xususiyatiga ega ekanligini izohlaydi. Sinonimlar sifatida qabul qilinadigan so'zlar bir predmetning boshqa xususiyatlarini ham ochib berishi va shu xususiyatlar asosida yangi nomlarni qabul qilishi lozim (25, 91).

Ch.S. Abdullayevaga ko'ra, terminologik sinonimiyadan foydalanish mumkin bo'lmagan holat va undan foydalanish inkor etiladi (26, 79). Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, terminologiyadagi sinonimik hodisa juda ko'p bora uchraydi.

Quyida bir qancha misollarni aynan sinonimik hodisaga uchraganini ko'rishimiz mumkin:

crime — *offense, unlawful act, illegal act, misdemeanor, misdeed, delinquency, wrongdoing, misconduct, villainy, illegality;*

criminal — *offender, lawbreaker, delinquent, villain, felon, wrongdoer, convict, gangster, miscreant, malefactor, culprit;*

security — *safety, protection, invulnerability, safeness;*

defend — *protect, indemnify, hold harmless;*

act — a law, legislation, a statute, a regulation, an ordinance (27, 54);

malicious criminal — hardened criminal, hardened offender, habitual criminal;

stewardess — cabin girl, air hostess, flight attendant;

second class — economy class, budget class;

accommodation — room;

tramping — trekking;

hotel industry — lodging industry;

holiday insurance — travel insurance;

duplicate reservation — double booking;

factory tourism — industrial tourism;

allexpense tour — all-in tour;

camper — caravan / recreational vehicle;

baggage — luggage;

guilty — fault, blame;

passion — ardor, fervor, enthusiasm, eagerness, zeal, zealousness, vigor, fire, fieriness, energy, fanaticism, mania, hobbyhorse, craze;

trip — expedition, excursion, tour, trek, voyage, junket, cruise, pilgrimage, peregrination, jaunt, crossing, passage, travel;

enemy — opponent, adversary, foe, rival, antagonist, competitor, oppose, challenger;

guide — escort, attendant, tour guide, docent, cicerone, usher, chaperone;

license — document, permit, authorization, pass, ticket, warrant.

Terminlardagi sinonimlarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash tarjimon uchun muhim hisoblanib, tarjima jarayonida chalkashliklarning oldini olishga yordam beradi. Masalan, garchi ularni sinonim sifatida lug‘atlarda uchratsak-da “*crime*” (**jinoyat**) so‘ziga sinonim sifatida beriladigan “*offence*” (**huquqbuzarlik**) so‘zlari orasida farqlar mavjud.

Jinoyat — Jinoyat Kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy **xavfli** qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmaydi, qilmishning jinoyat deb hisoblanishi uchun unda jinoyat qonunida o‘rnatilgan belgilar va jinoyat tarkibi mavjud bo‘lishi kerak (28, 6). **Huquqbuzarlik** — sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan **aybli** g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) (29). Xuddi shunday, “**criminal**” va “**offender**” so‘zlarida ham yuqoridagi tafovutlarni uchratish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, terminologiyada sinonimlardan foydalanish biroz nomuvofiqlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Omonimiya — talaffuzi yoki yozilishi jihatdan bir xil, ammo ma‘nosi jihatidan turli xil bo‘lgan leksemalardan foydalanish hodisasidir. Terminologiyada omonimlar bir xil so‘zni turli sohalarda umuman bir-biriga zid bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi, shu tariqa ko‘p hollarda tushunmovchiliklar va noto‘g‘ri

anglashuvlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Terminologiyada omonimlarni farqlashda aniq ta'riflar va kontekst hal qiluvchi ahamiyatga ega. Termin, qoidaga binoan faqat bitta ma'noni anglatishi lozim, terminotizimda terminlarning omonimi bo'lmasligi ma'qul. Biror termin uch ma'noda uch sohaning termini bo'lib xizmat qilgan ekan, uch xil ma'no yukini tashishga xizmat qiladi. Jumladan, **operatsiya** so'zini olib ko'raylik:

1. *Tibbiyot sohasida*: organlarni kesish yoki uni olib tashlash orqali davolash ma'nosini anglatuvchi termin.

2. *Harbiy sohada*: harbiy faoliyat, ya'ni maqsadga erishishga qaratilgan xatti-harakat ma'nosidagi termin.

3. *Moliya sohasida*: kirim, chiqim, foyda va zarar hisob-kitobi ma'nosida qo'llaniladigan termin (1, 48).

Danilenko omonimiyaning terminologiyadan joy olishida bir qator bosqichlarni bosib o'tganini ta'kidlaydi. Ular: 1) ko'p ma'noli so'zlar bir qator soha leksemalarida faol foydalanilgan; 2) sohalar lug'at boyligini kengaytirgan va qo'llanilgan sohalararo omonimiyani shakllanishiga asos bo'lgan" (24, 205).

T. B. Nazarovaning tadqiqotlarida omonimlarni shakllantiruvchi ikkita manba ko'rsatib o'tiladi: a) turli til birliklarining talaffuzda o'zaro mos kelib qolishi; b) qachondir bir so'z tarkibida mavjud bo'lgan ko'p ma'nolilikning yo'qolishi (ma'no bog'liqlik zanjirining uzilishi) natijasida yuzaga kelgan shakliy o'xshashlik (30, 52).

O. Axmanova omonimlarning quyidagi guruhlarini ajratadi: absolyut (to'liq) omonimlar, grammatik omonimlar, etimologik omonimlar, yasama yoki tarixiy omonimlar, sodda yoki o'zak omonim, sintaktik omonimlar (31, 66).

Shaklan o'xshash terminlar turli sohalarda qo'llanilib, omonimlik hodisasini yuzaga keltirishi H. Dadaboyevning terminologik tadqiqot ishlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, **boks** termini:

- *tibbiyotda*: alohida xona;
- *sportda*: sport turi ma'nosida;
- *konvergeniya*;
- *biologiyada*: har xil organizmlarda o'xshash belgilarning shakllanishi;

- *fizikada*: bir nuqtada ikkala ko'z o'q chizig'ining birlashishi;

- *tibbiyotda*: o'xshashlik;

- *tilshunoslikda*: bir qancha tovushlarning bir tovushga birlashishi ma'nolarida ifodalangan. Bunga o'xshash holatlar bir qator sohalarning terminlarida uchrab, omonimlik hodisasida o'z aksini topgan (20, 83).

Quyidagi misollar orqali sinonimiya hodisasini ko'rishimiz mumkin:

charter:

1) ustav, nizom;

2) rasmiy ruxsat, guvoynoma;

3) e'lon qilmoq (yangi tashkilot tashkil topganini);

4) transport vositasini ijaraga olmoq;

charge

- 1) hujum, hamla;
- 2) ayblov;
- 3) to'lov;
- 4) vazifa;
- 5) zaryad;

safe

- 1) xavfsiz, xavfdan xoli;
- 2) seyf;
- 3) sog'-salomat;

patrol

- 1) patrullik qilmoq;
- 2) juda tez va xavfli haydamoq;

approach

- 1) yo'l, yo'lak;
- 2) yaqinlashish;
- 3) yondashuv;
- 4) kelishish uchun gaplashmoq;

trip

- 1) safar, sayohat;
- 2) qoqilib tushish;
- 3) boshidan o'tkazmoq.

Tilshunoslikda omonimiya doirasida fonologik omonimiya (omofon) va orfografik omonimiya (omograf) o'rtasida farqlanadi. Omofonlar bir xil talaffuz qilinadigan, ammo yozilishi har xil bo'lgan birliklardir: masalan, *night/knight*, *here/hear*, *bare/bear*, omograflar yozilishi bir xil, lekin kelib chiqishi, ma'nosi va ba'zan talaffuzi jihatidan farq qiladigan so'zlardir: *match* (hamkasb)/*match* (gugurt); *bore* (teshmoq)/*bore* (*bear fe'lining o'tgan zamon shakli*)/*bore* (zeriktirmoq) (3, 111).

Maqolada keltirilgan so'zlar tarjimalarida kalkalash (so'zma-so'z tarjima), erkin tarjima, gipoteza (ilmiy faraz) tarjimasi va izohli tarjima usullaridan foydalanildi.

Xulosa qilib aytganda, ko'p ma'nolilik, omonimiya va sinonimiya hodisasi terminologiyada ham tez-tez uchrab turadigan lisoniy hodisalardir, ushbu tushunchalarning har birini terminologiya kontekstida ko'rib chiqish orqali tahlil qilish mumkin. Bir qator terminologlarning ushbu hodisalarning terminologiyada sodir etilishi ma'qullanmasa-da, uni to'xtatishning iloji yo'qligi ba'zi terminologlar tomonidan ta'kidlangan. Ma'lumki, terminologlar va soha bo'yicha mutaxassislar aniq ta'riflar va kontekstni taqdim etish hamda foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar yaratish orqali atamalarni ajratib olish uchun harakat qilishadi. Shunga qaramay, bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ular barcha sohadagi terminlarga tegishli va ularga yechim topilishi lozim. Bular:

1. Sinonimiya, ko'p ma'nolilik hodisasiga uchrashi sababli terminning o'zi ifodalashi lozim bo'lgan tushunchaga mos kelmasligi.

2. Terminologiyani haddan tashqari ko‘p xorijiy tillardan kirib kelgan terminlar bilan boyitilishi.

3. Terminlarni shakllantirishda ular izohlashi lozim bo‘lgan tushunchalarda sistemalilikning yetishmasligi shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardayev A., Urinbayeva D.B., Islamova D.A. O‘zbek terminologiyasi. — Samarqand: SamDU nashri, 2020. — 128 b.
2. Baxronova D. O‘zbek va ispan tillariga o‘zlashgan arabizmlarning lingvistik-etimologik xususiyatlari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 1 (48). — B. 65–75.
3. Cabré Teresa M. Terminology. Theory, methods and applications. — Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins publishing company. — 245 p.
4. Сложеникина Ю.В. Терминологическая вариативность: семантика, норма, функция. — М.: ЛКИ, 2010. — 195 с.
5. Флоренский П.А. Термин. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. — М.: Московский Лицей, 1994. — 359 с.
6. Кухно И.Ю. Терминология – семиотическая система «второго порядка» // Язык. Словесность. Культура. — 2014. — № 4. — С. 41–55.
7. Castellvi C., Bagot E., Sierra V. Neology in specialized communication // Terminology. — 2012. — № 18 (1). — pp. 1–8.
8. Капанадзе Л.А. О понятиях «термин» и «терминология». Развитие лексики современного языка. — М., 1965. — 78 с.
9. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики – Труды по языкознанию. — М., 1977. — 273 с.
10. Калинин А.В. Лексика русского языка. — Москва: Флинта, 1971. — 320 с.
11. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. — 144 б.
12. Sarcevic S. New Approach to Legal Translation. — The Hague-London-Boston: Kluwer Law International, 1997. — 231 p.
13. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. — Москва: АН СССР, 1966. — 160 с.
14. Реформатский А.А. Введение в языкознание. — Москва: Аспект Пресс, 1996. — 536 с.
15. Malmkjær K. Linguistics and the Language of Translation. — Edinburgh University Press. 2005. — 197 p.
16. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1968. — 114 б.
17. Широнова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: Филол.фан. фалс. д-ри. ...диссер. — Тошкент, 2020. — 95 б.
18. Faber P. A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. — Berlin/Boston: Mouton, 2012. — 303 p.
19. Davidov Y.J. Ko‘p ma‘nolilik hodisasining yuzaga kelish yo‘llari // Science and innovation international scientific journal. — 2022. — № 2. — B. 500–503. ISSN: 2181-3337
20. Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. — 92 b.
21. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — T.: O‘qituvchi, 2003.
22. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — T.: Ilm ziyo, 2013. — 190 b.
23. Расулов Р. Умумий тилшунослик. — Тошкент: Фан ва технология, 2007. — 256 б.
24. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. — Москва: Наука, 1977. — 246 с.
25. Реформатский А.А. Введение в языковедение. — Москва: Просвещение, 1967. — 536 с.

26. Абдуллаева Ч.С. Русско-узбекские параллели в современной экономической терминологии: дисс... канд. филол. наук. — Ташкент, 2000. — 79 с.
27. Stanisław Goźdz-Roszkowski, Iwona Witzak-Plisiecka. Special Issue on Legal Terminology: Approaches and Applications. — Łódź University Press Łódź, 2011. 198 p.
28. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. — URL: www.lex.uz (murojaat sanasi: 16.08.2023)
29. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. — URL: www.lex.uz (murojaat sanasi: 16.08.2023)
30. Назарова Т.Б. Филология и семиотика. Современный английский язык. — Москва: Высшая школа, 1994. — 52 с.
31. Ахманова О.С. О принципах и методах лингвистического исследования. — Москва: Издательство МГУ, 1966. — 184 с.

References

1. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan”On the Prevention of offenses”), available at: www.lex.uz
2. Abdullaeva Ch.S. *Russko-uzbekskie paralleli v sovremennoi ekonomicheskoi terminologii* (Russian-Uzbek parallels in modern economic terminology): candidate’s thesis, Tashkent, 2000, 79 p.
3. Akhmanova O.S. *O printsipakh i metodakh lingvisticheskogo issledovaniya* (On the principles and methods of linguistic research), Moscow: Izdatel'stvo MGU, 1966, 184 p.
4. Baxronova D. *O‘zbekistonda xorijiy tillar*, 2023, No. 1 (48), pp. 65-75.
5. Cabré Teresa M. *Terminology. Theory, methods and applications*, Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins publishing company, 245 p.
6. Castellvi C., Bagot E., Sierra V. *Terminology*, 2012, No. 18 (1), pp. 1–8.
7. Dadaboyev H. *Uzbek Terminologiyasi: ukuv kullanma* (Uzbek terminology: tutorial), Tashkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020, 92 p.
8. Danilenko V.P. *Russkaya terminologiya. Opyt lingvisticheskogo opisaniya* (Russian terminology. Experience of linguistic description), Moscow: Nauka, 1977, 246 p.
9. Davidov Y.J. *Science and innovation international scientific journal*, 2022, No. 2, pp. 500–503. ISSN: 2181-3337
10. Faber.P. *A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language*, Berlin/Boson: Mouton, 2012, 303 p.
11. Florenskii P.A. *Termin. Istoriya otechestvennogo terminovedeniya. Klassiki terminovedeniya: Ocherk i khrestomatiya* (Term. The history of Russian terminology. Classics of Terminology: Essays of a textbook), Moscow: Moskovskii Litsei, 1994, 359 p.
12. Kalinin A.V. *Leksika russkogo yazyka* (Vocabulary of the Russian language), Moscow: Flinta, 1971, 320 p.
13. Kapanadze L.A. *Razvitie leksiki sovremennogo yazyka* (Development of the vocabulary of the modern language), Moscow, 1965, 78 p.
14. Kukhno I.Yu. *Yazyk. Slovesnost'. Kul'tura*, 2014, No. 4, pp. 41–55.
15. Lotte D.S. *Osnovy postroeniya nauchno-tehnicheskoi terminologii. Voprosy teorii i metodiki* (Fundamentals of the construction of scientific and technical terminology. Questions of theory and methodology), Moscow: AN SSSR, 1966, 160 p.
16. Makhmudov N. *Til tilsimi tadkiki* (Linguistic linguistics study), Tashkent: Mumtoz suz, 2017, 144 p.
17. Malmkjær K. *Linguistics and the Language of Translation*, Edinburgh University Press, 2005, 197 p.
18. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. *Hozirgi uzbek adabiy tili* (Current Uzbek literary language), Tashkent: Ukituvchi, 2003.
19. Nazarova T.B. *Filologiya i semiotika. Sovremenniy angliiskii yazyk* (Philology and Semiotics. Modern English), Moscow: Vysshaya shkola, 1994, 52 p.

20. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N., *Hozirgi o'zbek adabiy tili* (Current Uzbek literary language), Tashkent: Ilm ziyo, 2013, 190 p.
21. *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi* (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan), available at: www.lex.uz
22. Pardayev A., Urinbayeva D.B., Islamova D.A. *O'zbek terminologiyasi* (Uzbek terminology), Samarqand: SamDU nashri, 2020, 128 p.
23. Rasulov R. *Umumii tilshunoslik* (General Linguistics), Toshkent: Fan va texnologiya, 2007, 256 p.
24. Reformatskii A.A. *Vvedenie v yazykopoznanie* (Introduction to Linguistics), Moscow: Aspekt Press, 1996, 536 p.
25. Reformatskii A.A. *Vvedenie v yazykovedenie* (Introduction to Linguistics), Moscow: Prosveshchenie, 1967, 536 p.
26. Sarcevic S. *New Approach to Legal Translation*, The Hague-London-Boston: Kluwer Law International, 1997, 231 p.
27. Shirinova E.T. *Uzbek tili bank-moliya terminologiyasi* (Banking and finance terminology of the Uzbek language): candidate's thesis, Toshkent, 2020, 95 p.
28. Slozhenikina Yu.V. *Terminologicheskaya variativnost': semantika, norma, funktsiya*, Moscow: LKI, 2010, 195 p.
29. Sosyur F. *Kurs obshchei lingvistiki* (General Linguistics Course - Works on Linguistics), Moscow, 1977, 273 p.
30. Stanisław Goźdz-Roszkowski, Iwona Witczak-Plisiecka. *Special Issue on Legal Terminology: Approaches and Applications*, Łódź University Press Łódź, 2011, 198 p.
31. Usmonov S. *Uzbek terminologiyasining ba'zi masalalari* (Some issues of Uzbek terminology), Toshkent: Ukituvchi, 1968, 114 p.